«Omadli Yil» aksiyasi bo‘yicha oferta

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Oferta «Omadli Yil» rag‘batlantiruvchi aksiyasini (keyingi o‘rinlarda «Aksiya») o‘tkazish tartibini, unda ishtirok etish shartlarini, g‘oliblarni aniqlash va sovrinlarni olish tartibini belgilaydi.

1.2. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, «Reklama to‘g‘risida»gi Qonun, «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi Qonun hamda boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq o‘tkaziladi.

1.3. Aksiya lotereya, qimor o‘yini yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa faoliyat hisoblanmaydi.

1.4. Aksiya tashkilotchisi: «Coscom» MChJ (Ucell savdo belgisi), STIR 201788904, yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, V. Vohidov ko‘chasi, 118-uy.

1.5. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.

1.6. Aksiya muddati: 2026-yil 2-noyabrdan 20-dekabrgacha, shu jumladan.

1.7. Imkoniyatlar 2026-yil 20-dekabr soat 23:59 gacha hisoblanadi.

1.8. Yakunlarni chiqarish va sovrinlar o‘yini ushbu Oferta bilan belgilangan sanada o‘tkaziladi.

2. Aksiya ishtirokchilari

2.1. Aksiyada faqat Ucell Prepaid oldindan to‘lov tizimi abonentlari bo‘lgan, 1-ilovada ko‘rsatilgan tarif rejalaridan foydalanadigan va ushbu Ofertada nazarda tutilgan ishtirok etish shartlarini bajargan jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin. 2.2-bandda ko‘rsatilgan shaxslar bundan mustasno.

2.2. Aksiyada quyidagilar ishtirok eta olmaydi:

- korporativ mijozlar va Postpaid platformasi abonentlari;

- Ucell test raqamlari abonentlari;
- M2M va boshqa maxsus tarif rejalari abonentlari;
- norezidentlar, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va «Turist» tarif liniyalari abonentlari;
- Tashkilotchi xodimlari, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari va turmush o‘rtoqlari.

2.3. Aksiya shartlariga javob bermaydigan shaxslar sovrin olishga da’vogarlik qila olmaydi. Bunday shaxs g‘olib deb topilsa, sovrin Tashkilotchi mulkida qoladi va Tashkilotchi undan o‘z xohishiga ko‘ra foydalanadi.

2.4. Ishtirokchi deb ushbu Oferta talablariga javob beradigan, 3-bo‘limda nazarda tutilgan shartlarni bajargan va «Ucell» mobil ilovasida «Ishtirok etish» tugmasini bosib, Oferta shartlariga roziligini tasdiqlash orqali Aksiyada ishtirok etishni faollashtirgan abonent raqami tushuniladi (keyingi o‘rinlarda «Ishtirokchi»).

3. Aksiyada ishtirok etish va imkoniyatlarni hisoblash

3.1. Sovrinlar o‘yinida ishtirok etish imkoniyatlarini olish uchun Ishtirokchi «Ucell» mobil ilovasida (2.23-versiyadan boshlab) «Ishtirok etish» tugmasini bosib, ushbu Oferta shartlariga roziligini tasdiqlashi kerak.

3.2. Balansni to‘ldirish

3.2.1. Aksiya davrida Ishtirokchi Aksiyada qatnashayotgan Ucell raqami balansini kamida 50 000 (ellik ming) so‘mga to‘ldirishi kerak.

3.2.2. Imkoniyatlar balansi to‘ldirilgan Ucell raqamiga hisoblanadi, bunda ushbu raqam Aksiya Ishtirokchisi bo‘lishi shart.

3.2.3. Bir martalik to‘lov bilan kiritilgan har bir to‘liq 50 000 (ellik ming) so‘m uchun sovrinlar o‘yinida ishtirok etish uchun 1 (bitta) imkoniyat hisoblanadi.

3.2.4. «Ucell» mobil ilovasi orqali balans to‘ldirilganda, ushbu to‘lov uchun hisoblangan imkoniyatlar soni ikki baravar oshiriladi.

3.2.5. «U-to‘lov» xizmati orqali balans to‘ldirilganda, ushbu to‘lov uchun hisoblangan imkoniyatlar soni ikki baravar oshiriladi.

3.2.6. Imkoniyatlarni hisoblash misollari:

- istalgan usulda 50 000 so‘m to‘ldirish: 1 ta imkoniyat;

- istalgan usulda 125 000 so‘m to‘ldirish: 2 ta imkoniyat;
- «Ucell» mobil ilovasi orqali 125 000 so‘m to‘ldirish: 4 ta imkoniyat;
- «U-to‘lov» xizmati orqali 50 000 so‘m to‘ldirish: 2 ta imkoniyat.

3.3. Yangi ulanish

3.3.1. Aksiya davrida Ishtirokchi quyidagi tarif rejalaridan biriga yangi ulanish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar olishi mumkin:

- New Bor 80;
- Bor 90;
- Bor 110;
- Bor 160.

3.3.2. Ko‘rsatilgan tariflarga yangi ulanish uchun quyidagi miqdorda imkoniyatlar hisoblanadi:

Tarif rejasi	Kompaniya ofisi / diler orqali	«Ucell» mobil ilovasi orqali o‘zini o‘zi ro‘yxatdan o‘tkazish
New Bor 80	2 ta imkoniyat	4 ta imkoniyat
Bor 90	3 ta imkoniyat	6 ta imkoniyat
Bor 110	4 ta imkoniyat	8 ta imkoniyat
Bor 160	6 ta imkoniyat	12 ta imkoniyat

3.3.3. «Ucell» mobil ilovasi orqali o‘zini o‘zi ro‘yxatdan o‘tkazish yo‘li bilan yangi ulanishda hisoblangan imkoniyatlar soni ikki baravar oshiriladi.

3.3.4. Yangi ulanish uchun hisoblangan imkoniyatlar Aksiyada ishtirok etish faollashtirilguncha saqlanadi. Ishtirok faollashtirilgandan so‘ng imkoniyatlar «Ucell» mobil ilovasida aks ettiriladi.

3.3.5. Yangi ulanish vaqtida amalga oshirilgan dastlabki to‘lov qo‘shimcha imkoniyat bermaydi.

3.3.6. Yangi ulanish uchun imkoniyatlarni olish maqsadida Aksiyada ishtirok etish 2026-yil 20-dekabr soat 23:59 gacha faollashtirilishi kerak.

3.3.7. Yangi abonentning keyingi balans to‘ldirishlari ishtirok faollashtirilgandan so‘ng ushbu Oferta shartlariga muvofiq hisobga olinadi.

3.4. Imkoniyatlarni hisoblash cheklovlari va shartlari

3.4.1. Bitta Ishtirokchi Aksiya davomida bitta abonent raqami uchun jami 30 tadan ko‘p bo‘lmagan imkoniyat to‘plashi mumkin.

3.4.2. Oferta shartlarini buzgan holda yoki avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalangan holda amalga oshirilgan balans to‘ldirishlar hisobga olinmaydi.

3.4.3. 3.3-bandda ko‘rsatilgan tarif rejalariga o‘tilganda imkoniyatlar hisoblanmaydi. Imkoniyatlar faqat yangi ulanish uchun taqdim etiladi.

3.4.4. To‘lov qaytarilgan taqdirda, ushbu balans to‘ldirish uchun avval hisoblangan imkoniyatlar bekor qilinadi.

3.4.5. «Mobil avans» yoki «Mobil o‘tkazma» xizmatlari orqali balans to‘ldirish uchun imkoniyatlar hisoblanmaydi.

3.4.6. Oferta shartlari qabul qilinishi va Aksiyada ishtirok etish faollashtirilishidan oldin amalga oshirilgan to‘lovlar keyinchalik hisobga olinmaydi.

3.4.7. «1+1» mexanizmi doirasida tarif rejasiga yangi ulanishda imkoniyatlar faqat asosiy abonent raqamiga hisoblanadi. Sovg‘a abonent raqamiga yangi ulanish uchun imkoniyatlar hisoblanmaydi.

3.4.8. Bitta abonent Aksiya shartlariga javob beradigan bir nechta abonent raqami orqali ishtirok etishi mumkin. Imkoniyatlar har bir raqam bo‘yicha alohida hisoblanadi. Ikkinchi yoki keyingi raqamda ishtirokni faollashtirish uchun asosiy raqam hisobidan chiqib, «Ucell» mobil ilovasiga tegishli raqam orqali kirish, so‘ng «Ishtirok etish» tugmasini bosib, ushbu Oferta shartlariga rozilikni tasdiqlash kerak.

3.5. Ishtirokni ro‘yxatdan o‘tkazish

3.5.1. Aksiyada ishtirok etish faqat «Ucell» mobil ilovasida «Ishtirok etish» tugmasini bosish va ushbu Oferta shartlariga rozilikni tasdiqlash orqali ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

3.5.2. Ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng, ushbu Ofertada nazarda tutilgan holatlardan tashqari, Aksiya davri tugaguniga qadar ishtirok saqlanadi.

3.5.3. To‘plangan imkoniyatlar soni haqidagi ma’lumot «Ucell» mobil ilovasining «Aksiyalar» bo‘limida mavjud.

4. «Abadiy» chegirma

4.1. «Abadiy» chegirma faqat 2026-yil 2-noyabrdan 31-dekabrgacha, shu jumladan, yangi ulangan abonentlarga taqdim etiladi.

4.2. Bor 90, Bor 110 va Bor 160 tarif rejalariga yangi ulanishda abonent to‘loviga doimiy chegirma beriladi.

Tarif rejasi	Chegirmali oylik abonent to‘lovi	Tarifning amaldagi narxi
Bor 90	80 000 so‘m	90 000 so‘m
Bor 110	95 000 so‘m	110 000 so‘m
Bor 160	130 000 so‘m	160 000 so‘m

4.3. Chegirmali tarif rejasidan boshqa istalgan amaldagi tarif rejasiga o‘tilganda chegirma bekor qilinadi va tiklanmaydi.

4.4. «Raqamni saqlab qolish» xizmati faollashtirilganda abonent Aksiya ishtirokchisi bo‘lishni to‘xtatadi. Xizmat o‘chirilgandan so‘ng abonentga tarif rejasining to‘liq abonent to‘lovi qo‘llaniladi.

4.5. «Restart» xizmati faollashtirilganda chegirma saqlanadi va abonent to‘lovi chegirma hisobga olingan holda yechiladi.

4.6. Chegirma kompaniyaning o‘z ofislarida, dilerlarda, «Ucell» mobil ilovasi orqali o‘zini o‘zi ro‘yxatdan o‘tkazishda hamda MNP orqali ulanishda mavjud.

5. O‘yin va sovrinlar

5.1. Aksiya doirasida bitta bosqich va bitta o‘yin o‘tkaziladi. Sovrin jamg‘armasi quyidagilardan iborat:

Sovrin nomi	Sovrinlar soni
Apple iPhone 18 Pro Max 256 GB smartfoni	2
Apple AirPods 4 ANC quloqchinlari	5
Apple Watch Series 12 aqlli soati	3
Zeekr 001 rusumli avtomobil	1

5.2. O‘yin Ucell Instagram sahifasida va Ucell YouTube kanalida jonli efirda o‘tkaziladi. O‘tkazilish sanasi va vaqti Tashkilotchi tomonidan qo‘shimcha ravishda e’lon qilinadi.

5.3. Imkoniyatlarni qayd etish abonent imkoniyatlar hisoblanishi to‘xtatilguniga qadar to‘plagan imkoniyatlar sonini aniqlashni anglatadi. Imkoniyatlarni hisoblash 2026-yil 20-dekabr soat 23:59 gacha amalga oshiriladi.

5.4. G‘oliblar imkoniyatlarning umumiy ro‘yxatidan randomayzer yordamida tasodifiy tarzda aniqlanadi.

5.5. Bitta Ishtirokchi bir nechta sovrin yutishi mumkin. Bitta sovrin yutilganda bitta yutuqli imkoniyat ro‘yxatdan chiqariladi.

5.6. Raqamga xizmat ko‘rsatish to‘xtatilsa (terminatsiya) yoki raqam qayta rasmiylashtirilsa, abonentning Aksiyadagi ishtiroki bekor qilinadi va barcha to‘plangan imkoniyatlar kuyadi.

5.7. Aksiya materiallarida ishlatilgan mahsulot va sovrin tasvirlari ularning haqiqiy tashqi ko‘rinishi, komplektatsiyasi va xususiyatlaridan farq qilishi mumkin.

5.8. O‘yin jadvali va bosqich bo‘yicha sovrinlar soni o‘zgartirilishi mumkin.

5.9. Rejalashtirilgan vaqtda o‘yinni o‘tkazishga to‘sqinlik qiluvchi holatlar, jumladan bayram va dam olish kunlari, texnik yoki tashkiliy sabablar hamda fors-major holatlari yuzaga kelsa, Tashkilotchi o‘yin sanasini o‘zgartirish huquqini saqlab qoladi.

5.10. Tashkilotchi sovrinlarning modeli, komplektatsiyasi va xususiyatlarini o‘zgartirish huquqini saqlab qoladi. Sovrinning haqiqiy modeli va komplektatsiyasi Aksiya materiallarida ko‘rsatilganidan farq qilishi mumkin.

6. Natijalarni e’lon qilish

6.1. O‘yin natijalari Ucell rasmiy saytida e’lon qilinadi.

6.2. G‘oliblar ro‘yxatida niqoblangan abonent raqami va yutilgan sovrin ko‘rsatiladi.

7. Sovrinlarni olish

7.1. G‘olib shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi shart. Hujjatdagi ma’lumotlar Ucell abonentlar bazasida SIM-karta egasi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan ma’lumotlarga to‘liq mos kelishi kerak. Sovrinni olish uchun g‘olib pasportning asl nusxasini yoki JShShIR ko‘rsatilgan ID-kartani taqdim etishi va sovrinni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolashi shart.

7.2. Aksiyada qatnashayotgan SIM-karta yoki mobil raqam 18 yoshga to‘lmagan shaxs nomiga ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, sovrinni uning qonuniy vakili, ya’ni ota-onasi yoki abonent raqami ro‘yxatdan o‘tkazilishiga rozilik bergan vasiysi oladi. Qonuniy vakil o‘z vakolatlarini tasdiqlashi, shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi hamda voyaga yetmagan shaxs nomidan sovrinni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolashi shart.

7.3. Sovrinlar o‘yin o‘tkazilgan kundan boshlab 14 kalendar kuni ichida topshiriladi.

7.4. Sovrin qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan va sovrin amalda topshirilgan paytdan boshlab o‘ynalgan va topshirilgan hisoblanadi.

7.5. 14 kalendar kuni ichida talab qilib olinmagan sovrinlar talab qilinmagan deb hisoblanadi.

7.6. Tashkilotchi g‘olib aniqlangan paytdan boshlab 5 kalendar kuni davomida u bilan bog‘lanish uchun 5 ta urinishni amalga oshiradi.

7.7. Abonent raqami o‘yin o‘tkazilayotgan va sovrin topshirilayotgan paytda faol holatda bo‘lishi kerak. G‘olib aniqlangan vaqtda raqam to‘xtatilgan, bloklangan yoki o‘chirilgan bo‘lsa, Tashkilotchi bunday abonentning ishtiroki yoki g‘alabasini bekor qilish huquqini saqlab qoladi.

7.8. Yuqorida ko‘rsatilgan hujjatlarni taqdim etishdan yoki zarur hujjatlarni imzolash va rasmiylashtirishdan bosh tortish sovrinni olish huquqini bekor qilish uchun asos bo‘ladi. Tashkilotchi sovrinni topshirishni to‘g‘ri rasmiylashtirish uchun qo‘shimcha hujjatlarni so‘rashi mumkin.

7.9. Sovrin g‘olibning vakiliga rasmiy ishonchnoma mavjud bo‘lgan taqdirda ham topshirilishi mumkin.

8. Boshqa shartlar

8.1. Aksiya haqidagi barcha ma’lumotlar www.ucell.uz saytida o‘zbek va rus tillarida joylashtiriladi. Ma’lumotlar boshqa tillarda ham e’lon qilinishi mumkin. Tafovutlar yuzaga kelganda, o‘zbek tilidagi versiya ustuvor hisoblanadi.

8.2. Aksiyada ishtirok etish fakti Ishtirokchining ushbu Oferta shartlariga roziligini anglatadi.

8.3. Tashkilotchi ushbu Ofertaga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega. Ishtirokchilar o‘zgarishlar haqida www.ucell.uz saytida Ofertaning yangilangan tahririni e’lon qilish orqali xabardor qilinadi. Bu tegishli xabarnoma hisoblanadi. Ishtirokchilar Oferta o‘zgarishlarini mustaqil kuzatib borishi va uning amaldagi tahriri bilan muntazam tanishishi shart.

8.4. Tashkilotchi quyidagilar uchun javobgar emas:

- Ishtirokchilarning Aksiya shartlari yoki saytda e’lon qilingan g‘oliblar ro‘yxati bilan tanisha olmasligi;
- Ishtirokchining aybi bilan ma’lumot yoki hujjatlarning kech olinishi yoki olinmasligi;
- ushbu Oferta bo‘yicha majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilmasligi;
- g‘olibning sovrinni olishdan bosh tortishi yoki uni o‘z vaqtida olmasligi;
- uchinchi shaxslar yoki Ishtirokchi aybi bilan yuzaga kelgan texnik nosozliklar.

8.5. Firibgarlik, hujjatlarni qalbakilashtirish, til biriktirish, ma’lumotlarni soxtalashtirish, insofsiz xatti-harakatlar yoki qonunchilik yoxud ushbu Oferta buzilishi aniqlansa, Tashkilotchi Ishtirokchining ishtiroki va natijalarini bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

8.6. Tashkilotchi firibgarlikning oldini olish uchun istalgan vaqtda qo‘shimcha texnik cheklovlarni joriy etishi va ishtirokning halolligini mustaqil baholashi mumkin.

8.7. Tashkilotchi tabiiy ofatlar, yong‘inlar, suv toshqinlari, har qanday urush harakatlari, blokada, karantin choralari, pandemiya, qonunchilikdagi jiddiy o‘zgarishlar va Tashkilotchi nazoratidan tashqaridagi boshqa fors-major holatlari uchun javobgar emas.

8.8. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi quyidagilarga rozilik beradi:

- Aksiya bo‘yicha majburiyatlarni bajarish maqsadida shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlash va uchinchi shaxslarga uzatish:
  - F.I.Sh. (pasport yoki ID-kartadan);
  - tug‘ilgan sana (pasport yoki ID-kartadan);
  - ro‘yxatdan o‘tgan yoki yashash manzili (pasport yoki ID-kartadan);
  - pasport yoki ID-kartaning seriyasi va raqami;
  - JShShIR, agar ID-karta yoki pasportda mavjud bo‘lsa;
  - mobil raqam;
- g‘oliblarni ushbu Ofertada belgilangan tartibda aniqlash;
- g‘olib deb topilgan taqdirda Ishtirokchi haqidagi ma’lumotlarni www.ucell.uz saytida va Tashkilotchining boshqa resurslarida joylashtirish;
- Aksiya bilan bog‘liq reklama materiallari, foto va videomateriallar hamda intervyularda ishtirok etish, ushbu materiallarni kompaniya va tashqi kanallarda e’lon qilish.

8.9. Ishtirokchi, shuningdek, quyidagilarga rozilik beradi:

8.9.1. Aksiya g‘oliblarini ushbu Ofertada belgilangan tartibda aniqlashga.

8.9.2. Aksiya, sovrinni olish yoki rasmiylashtirish jarayonida Ishtirokchining uchinchi shaxslar huquqlarini buzishi sababli Tashkilotchiga da’volar bildirilsa, bunday nizolarni mustaqil hal qilish uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga.

8.9.3. Aksiya g‘olibi deb topilgan taqdirda Ishtirokchi haqidagi ma’lumotlarni www.ucell.uz saytida, Telegram va Instagram kanallarida joylashtirishga.

8.9.4. Aksiyada ishtirok etish haqida reklama intervyularida, jumladan radio, televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari uchun majburiy ravishda ishtirok etishga, Tashkilotchi va/yoki jalb qilingan uchinchi shaxslar tomonidan foto va video tasvirga olishga. Ishtirokchi yaratilgan materiallardan qo‘shimcha rozilik olmasdan va haq to‘lamasdan, ular reklama xususiyatiga ega bo‘lsa ham foydalanishga rozilik beradi. Bunday materiallar ommaviy axborot vositalarida ham e’lon qilinishi mumkin.

8.9.5. Sovrinni olish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni, jumladan yo‘l, transport, xizmat safari va boshqa xarajatlarni g‘olib mustaqil qoplashiga.

8.9.6. Tashkilotchi ushbu Ofertada bevosita nazarda tutilgan holatlardan tashqari, Aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalarga kirishmaslik huquqiga ega ekanligiga.

8.9.7. Aksiya bilan bog‘liq barcha nizolar muzokaralar orqali hal etilishiga. Kelishuvga erishilmasa, nizo amaldagi qonunchilikka muvofiq O‘zbekiston Respublikasi sudida ko‘rib chiqiladi. Da’vo tartibiga rioya qilish majburiydir.

1-ilova. Aksiyada ishtirok etuvchi tarif rejalari

Quyidagi tarif nomlari asl hujjatdagi rasmiy nomlar saqlangan holda keltiriladi.

№	Tarif rejasi
1	Bor 45
2	Bor 60
3	Bor 80
4	Bor 110
5	Bor 160
6	Bor 50
7	Foydali 55
8	Yangi Yil
9	Foydali 45
10	Foydali 35
11	Foydali Plus
12	Yangi Start
13	Yangi Foydali
14	Ovoz 25
15	Doimiy Start
16	Doimiy Extra
17	Doimiy Ultra
18	Doimiy Max
19	Doimiy Plus
20	Doimiy Extra Plus
21	Special Unlim
22	COSMO Start
23	COSMO Plus

24 COSMO Max
25 Oddiy
26 Special Unlim Turbo
27 Special Plus
28 Special 70
29 Special 100
30 Chegarasiz 60
31 Chegarasiz 80
32 Chegarasiz 150
33 TV Bor
34 TV Bor Plus
35 Doimiy_100
36 Doimiy Ultra Plus
37 Yangi Doimiy Max
38 Smartphone 50
39 Smartphone 35
40 Ehtirom
41 Katta Doimiy 40
42 Katta Doimiy 55
43 Katta Doimiy 70
44 Katta Doimiy 100
45 Katta Doimiy 150
46 Sof Start
47 Sof Plus
48 Sof Extra
49 Sof_50
50 Sof_70

51 Sof_100
52 Sof_150
53 Foydali
54 Uydagi 5G M
55 Uydagi 5G L
56 TV Doimiy 55
57 TV Doimiy 70
58 TV Doimiy 90
59 TV Doimiy 120
60 TV Doimiy 180
61 Uydagi Cheksiz S
62 Uydagi Cheksiz M
63 Uydagi Cheksiz L
64 Special Plus BN
65 Special 70 BN
66 Special 100 BN
67 Start
68 Ovoz
69 Internet 60
70 New 300
71 New 500
72 Start 35
73 Maqsad Lite New
74 Maqsad
75 Maqsad Pro
76 Maqsad Lite
77 Maqsad Navo

78 Ko'proq!
79 Minnatdormiz
80 Yaxshi Kayfiyat
81 Zo'r Kayfiyat
82 A'lo Kayfiyat
83 Active 45
84 Active 70
85 Active 100
86 Student
87 Tantana
88 Katta Tantana
89 Special Start
90 Special Ultra
91 Special 80
92 Special 125
93 Marhamat
94 Special Start BN
95 Special Ultra BN
96 Special 80 BN
97 Special 125 BN
98 Uydagi 5G S
99 Maqsad 60
100 Maqsad 80
101 Bor 70
102 Bor 90
103 Bor 70+70
104 Bor 90+90

105 Ovoz Start
106 Ovoz Plus
107 Foydali 65
108 New Bor 80
109 Bor mobile S
110 Bor mobile M
111 Bor mobile L